



“O‘TGAN ASRLARDAN BUGUNGI KUNGACHA: TARIXIY DEMOGRAFIYANING TARAQQIYOTI VA AHAMIYATI”

*Guliston davlat pedagogika instituti Dotsenti Tarix fanlari bo'yicha Falsafa
doktori (PHD)*
Mirzaliyev U

Tarix yo'nalishi 33\24 guruh talabasi
Noryigitova Sevinch.

Anatatsiya: Tarixiy demografiya, tugilish va o'lim darajasi, migratsiya aholi soni dinamikasi.

Kalit so'zlar: Aholi tarkibi, demografiya, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, pandemiyalar va tabiiy ofatlar.

Tarixiy demografiya – aholi soni, tarkibi va hududiy joylashuvi kabi demografik jarayonlarning o'tmishdagi o'zgarishlarini o'rganuvchi fan sohasi. Bu yo'nalish orqali qadimgi davrlardan hozirgi kungacha aholining demografik rivojlanishi, turli davrlarda yuz bergan tabiiy ofatlar, urushlar, kasalliklar va boshqa omillarning ta'siri o'rganiladi. Boshlang'ich davri haqida aytsak Tarixiy demografiya dastlab XVII-XVIII asrlarda shakllana boshlangan. Birinchi navbatda soliq ro'yxatlari Tarixiy, cherkov yozuvlari va arxiv hujjatlariga asoslangan. Tarixiy demografiyani rivojlanish bosqichi XIX-XX asrlarda statistika va matematik usullarni qo'llash kengayadi. Shu davrda aholining tug'ilish, o'lim va migratsiya ko'rsatkichlari chuqur tahlil qilinadi.

Tarixiy demografiyaning asosiy yo'nalishlari Aholi soni va tarkibi malum bir davr va hududda aholisining o'sishi va o'zgarishidir. Tarixiy demografiyani asosiy yo'nalishlardan yana biri:

1. Aholi soni va dinamikasi



2. Tugilish va o'lim ko'rsatkichlari
3. Migratsiya jarayonlari
4. Nikoh va oilaviy tuzilma

5. Ijtimoiy va iqtisodiy omillar kabi omillar va yo'nalishlar orqali o'rganamiz.[1:67] Tarixiy demografiya – o'tgan davrlardagi aholi soni va migratsiyasini o'rganadigan fan.U asosan yozma manbalar, arxeologik topilmalar va statistik malumotlarga asoslanadi. Tarixiy demografiya bizga o'tgan jamiyatlarning qanday yashaganligini tushunishga yordam beradi va hozirgi demografik jarayonlarni tahlil qilish uchun asos yaratadi. Demografiyaning paydo bo'lishi asosan XVII asrning 2-yarmida anglyalik olim J.Graunt(1620-1674) tadqiqotlari bilan bog'liqdir. Demografiya terminini 1855-yilda fransuz olimi A. Giyar qo'llagan. Bu atama XIX asr oxiri-XX asr boshlarida keng tarqaladi. O'zbekistonda esa 1960 yillardan boshlab qo'llanila boshladi. Demografiya har bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzum aholisining ko'payishini va rivojlanish qonuniyatlarini alohida-alohida o'rganadi, chunki har bir ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyaga xos aholi o'sish qonuni demografik vaziyatga ham bevosita ta'sir o'tkazadi. XXasrning 2-yarmiga qadar O'zbekistonda aholi o'rtasida o'lim biroz kamayib, aholining o'rtacha umr ko'rishi uzayadi. Natijada aholining miqdor va sifat o'sishi ro'y berdi. Shu davrda O'zbekistonda demografiyaning rivojlanishiga e'tibor beriladi. Demografiyani fan sifatida vujudga kelishi va ushbu so'zning kelib chiqish tarixi 1662 yilga borib taqaladi. Ana shu davrda Angliyada vabo va boshqa yuqumli kasalliklari tarqalib, aholi o'rtasida o'lim hollari nihayatda ko'payib ketgan. Shu bois Londonda har hafta o'lim haqida maxsus malumotnomalar chop etilib, aholiga tarqatilgan. O'z malumotlarini saqlash maqsadida juda ko'plab insonlar bu malumotlarni o'qir edilar. Angliyalik savdogar Graunt Londonda tug'ilish va o'lim haqidagi 80 yillik malumotlarni o'rganib chiqqan, va 1662 yilda 90 betdan iborat kitobini chop ettirgan. Demografiyiga tamal toshi qo'ygan Graunt XIX-XX asrlarda demografiya va aholi soni statistikasi, sotsiologiya va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosatshunoslik fanlarining gurkirab



rivojlanayotgan bir davrda tan olingan. O'zbekistonda ham demografik tadqiqotlar rivojlanishi o'z tarixiga ega. Respublikada demografik bilimlar juda qadimdan mavjud bo'lgan. Bular haqida qadimgi qo'lyozmalar, arxeologik yodgorliklar va ilmiy manbalar guvohlik beradi. Lekin, mamlakatda mustaqil demografik tadqiqotlarni o'tgazish 1960 yillardan boshlangan.[2:4]

Respublikada demografiya fanining asoschisi demograf olim Murtazo Qoraxonov hisoblanadi. Olim mamlakatning XIX asrlarning ikkinchi yarmidan boshlab demografik tarixni tiklagan. Shu bilan birga M. Qoraxonov O'zbekiston aholisining son va sifat xususiyatlarini, tug'ilish, o'lim nikoh va ajrlalish kabi demografik jarayonlarni ilk kompleks o'rgangan hamda demografik prognozini amalga oshirgan.

O'zbekitonda demografiya fanining rivojlanishga Ishaq Rashidovich Mullajonov, Xojiakbar Salimov, Ra'no Axatovna, Ravza Bayanova Murtazina , Zulxumor Nazorova va Tojiboyevlar ham katta hissa qo'shgan. O'zbekiston aholisi quyidagicha ortib borgan.

- . 1980 yil-15,8 mln kishi;
- . 1990 yil-20,2 mln kishi;
- . 2000 yil-24,5 mln kishi;
- . 2020 yil-33,9 mln kishi;

Statistik malumotlarga ko'ra shunday o'sib borgan.[3:1,3]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S. Tursunov "Ozbek xalqining tarixiy demografiyasi".
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005).
3. Boriyeva M.R, Tojiyeva Z.N "Aholi geografiyasi".